



**TIBBIYOTDA LOTIN VA YUNON TILLARINING QO‘LLANILISHI
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛАТИНСКОГО И ГРЕЧЕСКОГО ЯЗЫКОВ В
МЕДИЦИНЕ THE USE OF LATIN AND GREEK LANGUAGES IN
MEDICINE**

Navbatov Sardorjon Qurbongeldiyevich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz
filali Davolash-1 fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: navbatovsardor70@gmail.com Telefon: +998880152806

Ismoilov Diyorbek Shahobiddin o‘g‘li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filali Davolash-1 fakulteti 1-bosqich
talabasi

E-mail: diyorbekismoilov270@gmail.com Telefon: +998994350699

Ermatova Ra'no Omonovna

Ilmiy rahbar: Toshkent tibbiyot akademiyasi O‘zbek va
xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola tibbiyotda lotin va yunon tillarining qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Maqolada bu tillarning tibbiy terminlarni shakllantirishdagi roli, terminlarning tuzilishi va ularning tarixiy rivojlanishi, amaliyotda va xalqaro tizimlarda qanday qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Lotin va yunon tillarini bilish, tibbiy terminologiyani to‘g‘ri tushunish, ilmiy maqolalar yozish va xalqaro hamkorlikda muvaffaqiyatli ishlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Tibbiyot, Lotin tili, Yunon tili, Tibbiy terminologiya, Tibbiy atamalar, Endokrin tizimi, Tibbiy tarjima, Tibbiy amaliyot, Xalqaro tibbiy tizimlar, Tibbiy ta’lim, Terminologik birlik, Tibbiy terminlarning morfologiyasi, Tibbiyotda lotin va yunon tillarining roli.

Ташкентская медицинская академия, Терменский филиал Факультет "Лечебное дело", 1 курс Навбатов Сардоржон Курбонгелдиевич E-mail: navbatovsardor70@gmail.com Телефон: +998880152806



Ташкентская медицинская академия, Терменский филиал Факультет "Лечебное дело", 1 курс Исмоилов Диёрбек Шахобиддин ўғли E-mail: diyorbekismoilov270@gmail.com Телефон: +998994350699

Аннотация

Статья посвящена использованию латинского и греческого языков в медицине. Рассматриваются их роль в формировании медицинской терминологии, структурных элементах терминов, а также их историческое развитие и применение в медицинской практике и международных стандартах. Важность знания этих языков для точного понимания терминов, научных публикаций и международного сотрудничества подчеркивается.

Ключевые слова: Медицина, Латинский язык, Греческий язык, Медицинская терминология, Медицинские термины, Эндокринная система, Медицинский перевод, Медицинская практика, Международные медицинские системы, Медицинское образование, ТдМфДР

ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЕ ЕДИНСТВО, МОРФОЛОГИЯ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ, РОЛЬ ЛАТИНСКОГО И ГРЕЧЕСКОГО ЯЗЫКОВ В МЕДИЦИНЕ

Tashkent Medical Academy, Termiz Branch Faculty of General Medicine, 1st year
Navbatov Sardorjon Qurbongeldiyevich E-mail: navbatovsardor70@gmail.com
Phone: +9988801052806

Tashkent Medical Academy, Termiz Branch Faculty of General Medicine, 1st year
Ismoilov Diyorbek Shahobiddin o'g'li E-mail: diyorbekismoilov270@gmail.com
Phone: +998994350699

Annotation

This article focuses on the use of Latin and Greek in medicine. It explores their role in forming medical terminology, the structure of terms, and their historical development and application in medical practice and international standards. The



importance of knowing these languages for accurate understanding of terms, scientific publications, and international collaboration is emphasized.

Keywords: Medicine, Latin language, Greek language, Medical terminology, Medical terms, Endocrine system, Medical translation, Medical practice, International medical systems, Medical education, Terminological unity, Morphology of medical terms, The role of Latin and Greek languages in medicine.

Kirish

Zamonaviy tibbiyotning asosi bo'lgan tibbiy terminologiya yillar davomida shakllangan an'anaviy tizim bo'lib, uning ildizlari qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatiga borib taqaladi. Aynan shu ikki til — lotin va yunon tili — tibbiyot fanining universal tiliga aylangan. Bugungi kunda har bir shifokor, farmatsevt, biotibbiyot tadqiqotchisi ushbu tillarni chuqur o'zlashtirmasdan turib, ilmiy yondashuv va amaliy faoliyatda yetarli darajada faol bo'lishi qiyin. Lotin tili asosan terminlarning asosiy shakli sifatida, yunon tili esa ko'proq ildiz va semantik mazmunni ifodalash uchun qo'llaniladi. Ushbu maqola orqali tibbiyotda lotin va yunon tillarining amaliy, nazariy va tarixiy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiy terminologiyaning shakllanishi nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy va ilmiy taraqqiyot bilan ham chambarchas bog'liqdir. Antik davrda yunon va rim olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros o'rta asrlarda arab tiliga tarjima qilinib, islom olamida saqlanib qolgan va keyinchalik Yevropa Uyg'onish davrida lotinchaga qayta tarjima qilingan. Aynan shu jarayonlar tibbiy atamalarni izchil va tizimli tarzda rivojlanishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda tibbiy atamalarning taxminan 80 foizi aynan lotin va yunon tillariga borib taqaladi. Misol uchun, "cardiologia" (yurak haqidagi fan) termini yunoncha kardia — yurak va logos — ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan bo'lsa, "fractura" (suyak sinishi) so'zi lotincha frangere — sindirmoq fe'lidan olingan. Bu esa har bir tibbiyot sohasi mutaxassisi uchun ushbu tillarni o'rganish nafaqat tarixiy-madaniy boylik, balki amaliy zarurat ekanligini ko'rsatadi.



Metod

Mazkur maqolani yozishda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlari qoʻllanildi:

1. Tarixiy-analitik metod: Tibbiy terminlarning kelib chiqishini aniqlash uchun Gippokrat, Galen, Aretey va Dioskorid kabi qadimgi shifokorlarning asarlari, ularning yunoncha asl nusxalari va lotinchaga tarjimalari oʻrganildi.

Gippokrat (Hippocrates, mil. avv. V–IV asrlar) – "Tibbiyot otasi" deb eʼtirof etilgan. Unga nisbat berilgan 60 dan ortiq asar mavjud boʻlib "Cii" ibililiddi boʻlib, ular "Corpus Hippocraticum" nomi bilan tanilgan. Bu asarlar asosan qadimgi yunon tilida yozilgan va unda koʻplab tibbiy terminlar (masalan, krisis, epidemia, physis) ilk bor ilmiy tarzda qoʻllangan.

Galen (Galenos, mil. II asr) – Rim davrining yunon shifokori boʻlib, u tibbiyot, farmakologiya va anatomiya fanlariga katta hissa qoʻshgan. Galen koʻplab yunoncha atamalarni tizimlashtirgan va ularning lotinchaga oʻtishida asosiy vositachilardan boʻlgan. Uning ishlari keyinchalik islom dunyosi va Yevropada ham keng tarqaldi.

Aretey (Aretaeus of Cappadocia, taxminan mil. I asr) – qadimgi yunon tabibi boʻlib, ichki kasalliklar, ayniqsa nevrologik buzilishlar haqida batafsil yozgan. Uning asarlarida koʻplab klinik terminlarning ilk shakllari uchraydi.

Dioskorid (Pedanius Dioscorides, mil. I asr) – farmakolog va tabiatshunos boʻlib, "De Materia Medica" nomli asari bilan mashhur. Bu asar oʻsimliklardan dori tayyorlash haqidagi eng muhim qadimgi manbalardan biri boʻlib, undagi terminlar keyinchalik farmakologik lugʻatga asos boʻlgan. Shunday qilib, tarixiy-analitik metod orqali bu antik mualliflarning asarlaridagi terminologiyani oʻrganish, hozirgi tibbiy lugʻatning shakllanish jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. Bu metod ilmiy izlanishlarda tibbiy soʻzlarning tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim oʻrin tutadi.

2. Strukturaviy-lingvistik metod: 1000 dan ortiq tibbiy terminlar tahlil qilinib, ularning morfemik strukturalari (prefix, ildiz, suffiks) ajratildi va semantik maʼnosi izohlandi. Ushbu strukturaviy-lingvistik metod orqali terminlarning qanday shakllanishi, ularning tarkibiy qismlari va bu qismlarning maʼno berishdagi oʻrni chuqur tahlil qilindi. Masalan, gastroenterologia termini uchta asosiy morfemadan iborat: gastro- (qorin, oshqozon — yunoncha gaster), entero- (ichak — yunoncha enteron), va -logia (taʼlimot, fan — yunoncha logos). Bu metod orqali aniqlanishicha, tibbiy terminlarning katta qismi prefikslar orqali anatomik joyni,



ildizlar orqali asosiy ma'noni, suffikslar orqali esa patologik holat, diagnostik jarayon yoki amaliyot turini bildiradi. Shuningdek, ushbu metod yordamida sinonimik atamalar, antonim shakldagi terminlar va bir ildizdan kelib chiqqan turli shakllardagi atamalarni guruhlash imkoniyati ham yaratildi. Bu esa tibbiy terminologiyani tizimlashtirish, ularni yodlashni yengillashtirish va yangi atamalarni hosil qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

3. Kontent-tahlil metodi: Tibbiyot oliygohlarida o'qitilayotgan terminologiya fanining o'quv dasturlari, darsliklari va qo'llanmalari tahlil qilindi. Kontent-tahlil metodi asosida turli tibbiyot oliygohlarida terminologiya faniga oid mavjud o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar tizimli ravishda o'rganildi. Bu tahlil natijasida tibbiy terminlarni o'rgatishda qo'llanilayotgan yondashuvlar, asosiy mavzular, o'quv yuklamasi hajmi hamda metodik vositalarning mazmuni aniqlashtirildi. Darsliklarda asosan lotin va yunon tilidagi asosiy tibbiy atamalar, ularning grammatik shakllari, tarjimasi va amaliy qo'llanilishi ustuvor o'rin egallaydi. Shuningdek, ayrim o'quv qo'llanmalarda terminlarning etimologiyasi, morfologik tarkibi va zamonaviy tibbiyotda qo'llanish sohalariga oid bo'limlar mavjud bo'lib, bu esa nazariy bilimlar bilan birga amaliy tafakkurni ham shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tahlil jarayonida, ba'zi darsliklarda terminlarning izohlanishida farqliliklar yoki yetarlicha mukammal bo'lmagan tavsiflar aniqlangan bo'lib, bu kelajakda o'quv materiallarini yanada boyitish zarurligini ko'rsatadi.

4. Empirik metod: Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlaridagi klinikalarda foydalanilayotgan real tibbiy hujjatlar (retseptlar, shifokor yozuvlari) o'rganildi. Empirik metod asosida Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlaridagi klinikalarda amaliyotda qo'llanilayotgan real tibbiy hujjatlar – xususan, retsept blankalari, shifokor yozuvlari, tibbiy ko'rik natijalari va epikrizlar o'rganildi. Tahlil natijasida, ushbu hujjatlarda tibbiy terminlarning qanday qo'llanilayotgani, ularning qisqartma shakllari, mahalliy va xalqaro atamalar uyg'unligi, shuningdek, lotin va yunon tilidagi komponentlarning amaliy ifodasi aniqlab chiqildi. Empirik metod asosida Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlaridagi klinikalarda amaliyotda qo'llanilayotgan real tibbiy hujjatlar – xususan, retsept blankalari, shifokor yozuvlari, tibbiy ko'rik natijalari va epikrizlar o'rganildi. Tahlil natijasida, ushbu



hjjldibbiilid'llililiihklli hujjatlarda tibbiy terminlarning qanday qo'llanilayotgani, ularning qisqartma shakllari, mahalliy va xalqaro atamalar uyg'unligi, shuningdek, lotin va yunon tilidagi komponentlarning amaliy ifodasi aniqlab chiqildi.

5. Komparativ metod: ICD-11, INN, ATC va boshqa xalqaro tibbiy klassifikatorlardagi atamalar boshqa tillrdagi ekvivalentlar bilan solishtirildi. Komparativ metod asosida tibbiyotda keng qo'llaniladigan xalqaro klassifikatorlar — ICD-11 (Xalqaro kasalliklar tasnifi), INN (Xalqaro patentlanmagan nomlar tizimi), ATC (Anatomik-terapevtik-kimyoviy klassifikatsiya tizimi) va boshqa normativ hujjatlardagi atamalar o'zbek, rus, ingliz va boshqa tillardagi ekvivalentlar bilansolishtirildi. Bu solishtirma tahlil natijasida terminlarning xalqaro darajada yagona shakllarda ishlatilishi, ularning tarjima qilingan variantlarida esa semantik farqlar yoki stilistik tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Masalan, ICD-11 da uchraydigan essential hypertension termini ba'zi tarjimalarda "asosiy gipertoniya", boshqalarida esa "birlamchi arterial gipertoniya" tarzida keltirilgan bo'lib, bu izohlashda aniq va izchil yondashuv zarurligini ko'rsatadi. INN tizimidagi dori vositalari nomlari — masalan, paracetamol — barcha tillarda deyarli o'zgarmasdan saqlanadi, bu esa bemor xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. ATC kodlari esa farmakologik guruhlarini aniqlashda xalqaro birlikni saqlab, terminologiyada aniqlik va moslikni kafolatlaydi. Ushbu metod orqali terminlar tizimining global miqyosda qanday standartlashtirilgani va mahalliy tilga qanday moslashtirilgani o'rganildi, bu esa tarjima amaliyoti va tibbiy axborot almashinuvini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Natija. 1. Tarixiy rivojlanish: Tibbiyot tarixining ilk bosqichlarida yunon tili ustuvor edi. Gippokrat asarlari — tibbiyotning ilk nazariy asoslari aynan yunon tilida yozilgan. Galen esa ularni tizimlashtirib, Rim imperiyasi ta'sirida lotinchalashtirdi. O'rta asrlarda Yevropa universitetlarida tibbiy ta'lim faqat lotin tilida olib borilgan.

2. Terminlarning morfologik tuzilishi: Tibbiy atamalar asosan 3 qismdan tashkil topgan: Prefiks (Hyper-, Hypo-, Brady-, Tachy-) Ildiz (Cardi-, Nephro-, Hepat-, Osteo-, Pneumo-) Suffiks (-itis, -oma, -logy, -cyte, -emia)



Masalan:

Hepatomegaly = Hepat- (jigar) + -megaly (kattalashish) Leukocytosis = Leuko- (oq) + -cyte (hujayra) + -osis (ko‘payish)

3. Amaliyotda qo‘llanilishi : Lotin tili retseptlar tilidi:

Rp. (Recipe) M.f. (Misce fiat – aralashtirilsin) D.t.d. (Da tales doses – shunday dozada berilsin) q.d. (quaque die – har kuni). Bundan tashqari, laborator natijalarda: Creatinina serica, Glucosum plasmaticum, Urina completa kabi lotincha iboralar ishlatiladi.

4. Xalqaro standart tizimlarda qo‘llanilishi: ICD-11: kasalliklar nomlari ko‘pincha lotincha shaklda: Myocardial infarction, Diabetes mellitus, Tuberculosis pulmonum. INN: Dori nomlari: Amoxicillinum, Ibuprofenum, Metforminum. ATC: Tashxis va dori kodlari: C07AB02 – Atenololum.

5. Tibbiy ta’limda ahamiyati: Har bir tibbiyot fakultetida “Tibbiy terminologiya” fanining asosini ushbu tillar tashkil etadi. Bu fan orqali talabalar tibbiy yozuvlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tibbiy adabiyotlarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Lotin va yunon tillarini bilgan ilililihhllikxkblbilihlhd mutaxassislar ilmiy maqola yozish, chet ellik hamkasblar bilan ishlashda yuqori samaraga erishadi.

6. Klinikalarda qo‘llanishi: Diagnostik kartalarda ko‘plab atamalar aynan lotin tilida qayd qilinadi.

Misol: Status praesens generalis: cor et pulmo – normae. Diagnosis principalis: Pneumonia lobaris dextri.

7. Tibbiy tarjimada roli: Yunoncha ildizlarni tushunish tarjimonlarga tibbiy matnlarni aniq tarjima qilishda yordam beradi.

Masalan: Gastrectomia totalis – butun oshqozonni olib tashlash Nephrolithiasis – buyrak toshi kasalligi



8. Yangi atamalar yaratishda roli: Yangi ochilgan sindrom yoki kasallikka nom berishda yunon yoki lotin tilidan foydalaniladi.

Misol: COVID-19 (Corona Virus Disease) SARS (Severe Acute Respiratory Syndrome)

Xulosa

Lotin va yunon tillari tibbiyot fanining asosiy kommunikativ vositasi bo'lib, ularni chuqur o'zlashtirish har bir tibbiyot xodimining bilim va malakasini oshiradi. Bu tillar orqali tibbiyot tarixiy ildizlarga ulanadi, terminologik birlik yaratiladi va ilmiy aniq ifoda ta'minlanadi. Hozirgi zamon tibbiyotining global xarakteri aynan ushbu tillar orqali umumiy muhitda ishlash imkonini beradi. Shuningdek, lotin va yunon tillarining qo'llanilishi ilmiy maqolalar yozishda, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishda va xorijiy adabiyotlardan samarali foydalanishda muhim kommunikativ asos bo'lib xizmat qiladi. Tibbiyotning barcha yo'nalishlarida – diagnostika, farmakologiya, jarrohlik, anatomiyadan tortib, genetikagacha – bu tillar orqali tushunchalar yagona shaklda ifodalanadi, bu esa chalkashliklarning oldini oladi va klinik aniqlikni ta'minlaydi. Shu bois, tibbiy ta'lim jarayonida lotin va yunon tillariga asoslangan terminologiyani puxta o'rgatish, nafaqat nazariy bilim, balki amaliy faoliyatda ham raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi. Demak, ushbu tillarni egallash tibbiyot sohasidagi xalqaro integratsiya, ilmiy taraqqiyot va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishning ajralmas sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hippocrates. Corpus Hippocraticum. Oxford University Press, 2010.
2. Galen. De usu partium. Loeb Classical Library.
3. Dorland's Illustrated Medical Dictionary. 33rd ed. Elsevier, 2020.
4. Terminologia Anatomica. IFAA, 1998.
5. WHO. ICD-11: International Classification of Diseases, 2022.
6. WHO. INN Guidelines, 2020.
7. Tibbiy terminologiya asoslari. TTA nashriyoti, 2022.
8. Mosby's Medical Terminology Flash Cards. Elsevier, 2021.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd May, 2025

9. Wujastyk D.R. Greek and Latin in Scientific Terminology. Oxford University, 2017.

10. Tibbiy tarjima va tilshunoslik asoslari. ToshPTI, 2020.